

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN FAVQULODDA HOLATLAR TIBBIYOTI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Favqulodda holatlar tibbiyoti talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

1. Tinchlik davridagi favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha. F.V.D.T nizomi qonunlari. Favqulodda vaziyatlarda shikastlanganlarga shifokorgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish;

2. Tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlarda fuqarolarga tibbiy yordamni tashkil etish. Xalqaro terrorizm tushunchasi, turlari. Terroristik akt sodir etilganda aholi harakati;

3. O'tkir zaharlanishlarda zararlanganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishni tashkillashtirish. O'ta xavfli kasalliklar o'choqlarida epidemiyaga qarshi anitariya-gigiyena chora- tadbirlari;

4. Radiatsiyadan shikastlanishda birinchi tibbiy yordam va shifokorgacha bo'lgan yordamni ko'rsatish xususiyatlari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalari va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalari	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
------------	------------------------	---------------------	-------------------	---------------------

1	Tinchlik davridagi favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha. F.V.D.T nizomi qonunlari. Favqulodda vaziyatlarda shikastlanganlarga shifokorgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish	Favqulodda vaziyatlar, halokatlar haqida asosiy tushunchalarni biladi. Favqulodda vaziyatlar tasnifi, turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari, Sog'liqni saqlash tashkilotlarining favqulodda vaziyatlarda vazifalari, "Qizil yarim oy" jamiyatining aholi va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha vazifalari haqida tushunchalarga ega. Respublika shoshilinch tibbiy yordam Ilmiy Markazi (RShTYoIM) va uning viloyatlardagi filiallari haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Ommaviy shikastlar vaqtida shikastlanganlarni izlash, topish, qutqarish, tibbiy saralash va evakuatsiya qilish qoidalarini biladi va qo'llay oladi. Tibbiy evakuatsiya bosqichlarini biladi va qo'llay olishi lozim. Favqulodda vaziyatlarda jarohatlanish turlari, ularda qon oqishi turlari, sabablari va belgilarini biladi. Arterial, venoz, kapillyar, parenximatoz qon oqishlarining belgilarini farqlaydi. Qon oqishni to'xtatish xususiyatlari, usullari, qonun- qoidalarini biladi va qo'llay oladi. Qon ketishining asoratlarini biladi, gemorragik shok, o'tkir qon yetishmovchiligi, belgilari, oqibatlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim	22.5 %	9 ta
2	Tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarda fuqarolarga tibbiy yordamni tashkil etish. Xalqaro terrorizm tushunchasi, turlari. Terroristik akt sodir etilganda aholi harakati	Tabiiy (yer qimirlashi, suv toshqinlari, sel, ko'chkilar, dovul, to'fon) va texnogen (Yong'in, portlash, zarba to'liqini, kuyish, elektr tokidan jarohatlanish) tusdagi favqulodda vaziyatlar tasnifini biladi va ularni farqlay oladi. Ularda kuzatiladigan odam hayoti va sog'lig'iga xavf tug'diradigan holatlar va jarohatlar (qon ketish, yumshoq to'qimalar jarohati, suyak chiqishi va sinishi, uzoq vaqt bosilib qolish sindromi - "Krash" sindromi, cho'kish, markaziy nerv sistemasi tomonidan o'zgarishlar, travmatik shok, talvasa sindromi)ni biladi, shoshilinch yordam ko'rsata olishi lozim. Terrorizm rivojlanish tarixi, turlari, xalqaro terrorizm, terrorchi, garovga ushlab turilgan shaxs tushunchalari, terrorchilikning maqsadlari, terrorchilik aktlarini o'tkazishda qo'llaniladigan vositalar haqida tushunchalarga ega. Terrorchilik holati sodir etilganda aholining xatti-harakati, tibbiy yordamni tashkil qilish qoidalarini biladi va amalda qo'llay olishi lozim	57.5 %	23 ta

3	O'tkir zaharlanishlarda zararlanganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishni tashkillashtirish. O'ta xavfli kasalliklar o'choqlarida epidemiyaga qarshi anitariya-gigiena chora- tadbirlari	Zaharlanish tushunchasi, turlari, maishiy, tasodifiy zaharlanish haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Hayotda ko'p uchraydigan zaharlanishlar (dori preparatlaridan, alkogoldan, narkotik moddalardan, oziq-ovqatlardan, kislota va ishqorlardan, ilon chaqishi, hayvon tishlashi, zaharli hashoratlar chaqishi) oqibatida kelib chiqadigan klinik belgilarini biladi va farqlaydi, shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini biladi va qo'llay oladi. O'tkir zaharlanishlarning oldini olishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni biladi va qo'llay oladi. Evakuatsiya detoksikatsiya choralari qo'llay olishi lozim. Epidemiya, epidemiologik jarayon, inkubatsiya davri tushunchalarini biladi va farqlaydi. Epidemik o'choqlarning tibbiy-taktik tavsifini biladi. Yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi va tarqalishi xavfini kuchaytiradigan omillarni farqlaydi. Dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya tushunchalarini, ularni o'tkazish qoidalarini va barcha usullarini biladi va qo'llay oladi. Favqulodda vaziyatlarda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni qo'llay olishi lozim. Infeksiya manbalarini zararsizlantirish usullari, infeksiya o'tish yo'llarini uzib qo'yish tadbirlari bilishi, qo'llay olishi lozim. O'ta xavfli infeksiyalar, ulardan muhofazalanish vositalarini farqlashi va qo'llay olishi lozim. Infeksiya o'choqlarini zararsizlantirish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Infeksiyaga qarshi dori vositalari va ularni qo'llash olishi lozim. Observatsiya va karantin ishlarni o'tkaza olishi lozim	10 %	4 ta
4	Radiatsiyadan shikastlanishda birinchi tibbiy yordam va shifokorgacha bo'lgan yordamni ko'rsatish xususiyatlari	Radiatsiyadan zararlanganlarni qidirib topish, qutqarish, saralash, shoshilinch va shifokorgacha yordam berish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Maxsus gazniqoblar, respirator, niqoblardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Maxsus kiyimlar: kombinezon, maxsus yoping'ich (plash nakidka), rezina qo'lqoplar, etiklardan foydalanish qoidalarini bilishi va qo'llay olishi lozim.	10 %	4 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarini eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	17.5%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	62.5%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Y.Allayorov, Y.Tojiboyev "Favqulotda holatlar tibbiyoti" Toshkent, Ilm Ziyo nashriyoti, 2012 yil

2. A.Gadayev, M.F Ziyayeva va R.To‘rakulova “Terapiya” “Yosh avlod matbaa” 2022 yil

3. Y.Allayorov, Y.Tojiboyev “Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari” Toshkent “Ilm Ziya” 2007 yil

4. В.Э.Аваков О.В. Чурилова А.М.Шарипов: “Руководство по оказанию первой неотложной доврачебной помощи.” 2010 й.

5. O‘zbekiston respublikasi sanitariya qoidalari, me‘yorlari va gigiyenik normativlari. O‘zR SanQvaM № 0365 -19.